

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA DINIY
BAG'RIKENGLIK TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH.****Qadamboyeva Hilola Umid qizi***UrDu Magistratura bo'limi 2-kurs magistri*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tolerantlik tushunchasi, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida tolerantlik, diniy bag'rikenglik tuyg'ularini shakllantirish haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar. *Tolerantlik, maktabgacha ta'lim, bag'rikenglik, din, diniy konfessiya, "baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola"*

Bugungi kunda respublikamizda maktabgacha ta'lim sohasida me'yoriy huquqiy bazani tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar, ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi ilmiy, innovatsion pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan konseptual islohotlar amalga oshirilmoqda. Xalqimizda shakllangan muomala madaniyati, mehr-oqibat, muruvvat, andisha va or-nomus kabi odob-axloqqa oid his-tuyg'ular nafaqat tarbiya vazifasini o'taydi, balki insoniy qadriyatlar va fazilatlarning namoyon bo'lishida, komil insonni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlarni barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa ta'lim-tarbiyaning bugungi samarali metodlarining yaratilishiga olib kelgan.

Ma'lumki, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ta'lim-tarbiya sohasidagi sifat o'zgarishlari qilib yuqori samaradorlikka erishishga, ularning jahon ta'limi talablari bilan mosligi va amaliy hayotdagi o'rnini qay darajada topayotganligiga bog'liq.

Ta'lim-tarbiya jamiyat uchun hayotiy zaruriyatdir. Ayniqsa, yosh avlodga tarbiya berish jarayonida maktabgacha ta'lim juda katta ahamiyat kasb etadi. Bolalarga tarbiya berish, ularga ta'lim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ammo tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, amalga oshirish usuli va vositalari mavjud.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni har tomonlarni uyg'un rivojlantirish uchun yetarlicha shart-sharoitlarni yaratish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga innovatsion va ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida, bolalar «Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalarida o'z "Men"i va o'z galar shaxsi o'ziga xosliklari, bag'rikenglik va tolerantlikka doir bilimlarini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlar va muloqot o'ratish kompetensiyalarini o'zlashtirishlari kerakligi belgilab berilgan." O'zbekiston

Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish"⁶ ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa, maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik munosabatini shakllantirishning psixologik-pedagogik va metodik xususiyatlarini aniqlashtirish, tolerantlikni shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi orasidagi "Hamkorlik pedagogikasi" va "Tolerantlik" tushunchalarini qo'llamay turib, har tomonlama rivojlangan shaxsni kamol toptirish mumkin emas.

"Tolerantlik" lotincha "tolerantia" — "sabr-toqat" degan soʻzidan olingan boʻlib, bagʻrikenglik, oʻzgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuygʻulari, fikr mulohazalari, gʻoya va e'tiqodlariga nisbatan toqatli boʻlishlikni anglatadi.

Tolerantlikning asosiy maqsadi yoshlarga bagʻrikenglik, oʻzga din, millat vakillariga hurmat, ularning qadriyatlarini e'zozlash, milliy boyliklariga hurmat bilan qarash, toqatlilik, bardoshlilik, doʻstlik, birodarlik, vatanparvarlik, saxiylik, sadoqatlilik, oʻzgalarga hurmat nazari bilan qarash koʻnikmalarini shakllantirishdan iborat.

Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasida tolerantlikka quyidagicha ta'rif berilgan:

"Bagʻrikenglik, oʻzgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, xis-tuygʻulari, fikr-mulohazalari, gʻoyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli boʻlish". Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarda tolerantlikni tarbiyalashda tarbiya vositalari hamda tarbiyachining oʻrni beqiyos hisoblanadi, shuningdek, tolerantlik tushunchasi oʻz tarkibiga chidam, bardosh, oʻzgalarning hayot tarzi, fikrlashi, xatti-harakati, qadriyatlariga toqat qilish, ularga hurmat nazari bilan qarash, atrofdagilarni kamsitmaslik kabi tushunchalarni qamrab olgan.

Hozirgi kunda tolerantlik oʻta muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga koʻra har kim oʻz e'tiqodiga amal qilishda erkindir. Har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmogʻi lozim. Oʻzbekiston koʻp millatli davlat. Bu yerda asosiy millat oʻzbeklar bilan birga oʻz madaniyatiga va an'alariga ega boʻlgan yuzdan ortiq millat va elatlar yashaydi. Ana shunday sharoitda, koʻpmillatli jipslashgan davlatni barpo etishda, millatlararo va elatlararo bagʻrikenglikka erishish siyosatining ahamiyati benihoya kattadir.

Pedagogik jarayonlarda tolerantlik tushunchalarini yosh avlodlarda shakllantirish bugungi maktabgacha ta'lim pedagogikasining oldida turgan eng birlamchi masalalaridan biridir.

Yosh avlodda tolerantlik munosabatini tarbiyalash quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

⁶ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-sonli "maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"

1. Dunyodagi barcha narsalarning (yer sharidagi materiklar, davlatlar, ularda yashovchi xalqlar, hayvonlar, o'simliklar va b.) turlicha ekanligini tushuntirish.
2. Millatlarni irqi, dini, xayot-tarzi har xil ekanligini tushuntirish.
3. Millatlar bir-biridan farq qilishini tushuntirish.
4. Kishilardagi o'zgachalikka bag'rikenglik va sabr bilan munosabatda bo'lish.
5. Fuqarolarni o'zaro tinch-totuvlikda yashashga o'rgatish.
6. Yosh avlodda bag'rikenglik, sabrlik, chidamlilik kabi xususiyatlarni tarbiyalash.

Tolerantlik munosabatini tarbiyalash uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

- maktabgacha ta'lim jarayonidan boshlab bolalarga odamlar har-xil bo'lishi, ular bilan yaxshi muomala qilib yashash kerak ekanligini tushuntirish;
- har bir narsa o'zini takrorlanmas, qadrlil xususiyatlariga ega ekanligi, shuning uchun bunga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak ekanligini tushuntirish;
- o'zining o'z xalqining madaniyati, hayot tarzini boshqalarnikidan ustun deb hisoblarnaslikka o'rgatish;
- boshqa xalqlar madaniyati, dini, qadriyatlariga nisbatan bardoshli, oqilona munosabatda bo'lishni qaror toptirish;
- bolaning ilk bog'cha davridan boshlab atrofdagilar bilan o'zaro ongli bir-birini tushunuvchanlik shartlariga asoslangan muloqotga o'rgatishga erishish;
- bolalarda o'zgal fikrini bardosh bilan tinglash, muammolarni o'zaro murosa asosida hal qilishga undash ko'nikmasini tarkib toptirish;
- bolalarda tolerantlik tushunchalarini shakllantirishda tinchliksevarlik, etnik, diniy, siyosiy, konfessional (diniy konfessiya-muayyan dinga e'tiqod qiluvchi kishilar jamoasi va shaxslararo kelishmovchiliklarga nisbatan chidamlilik, tenghuquqlilik kabilarning tub mohiyatini o'rgatish.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy ijodida bag'rikenglik g'oyalari yuksak rol o'ynaganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Uning "Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola", "Shaharni boshqarish" "Urush va tinch turmush haqida kitob", "Fazilatli xulqlar", "Fozil shahar odamlari qarashlari" singari asarlari o'zining boy insonparvarlik va bag'rikenglik tamoyillari singdirilganligi bilan muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa o'mida shuni aytishimiz mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarga sabrlik, bag'rikenglik, chidamlilik, kechirimlilik va boshqa xususiyatlarni singdirish, ularning mazmunini anglatish maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashi, dunyoni qabul qilishlari, anglashlarini o'zgartirib, bolalarning tolerantlik xulq-atvoriga ega bo'lishlariga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PQ-4312-sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabr, —2017—
2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora
tadbirlari

to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabr,
—Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari
to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori.